

MUHAMMAD YUSUFNING "O'KSIMAGIN O, YURAK" SHE'RIDAGI DARAXT, O'SIMLIK TIMSOLLARI TASVIRI

Mubinova Aziza

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf qalamiga mansub "O'ksimagine o, yurak" she'ridagi daraxt, o'simlik timsollari tahlil qilindi, ularga xos ma'no qirralari ochib berildi.

Annotation. The article analyzes the symbols of trees and plants in the poem "Do not be sad, O heart" written by Muhammad Yusuf and reveals their specific meaning.

Kalit so'zlar: ona, she'r, shoir, opa, daraxt, o'simlik, lola, yurak, mehribon, bola.

Keywords: mother, poem, poet, sister, tree, plant, tulip, heart, kind, child.

O'tgan asrning so'nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusuf o'zining sodda va samimiyo so'zi, o'zigagina yarashadigan she'riyati bilan xalq qalbidan chuqur joy egalladi. Muhammad Yusuf uchun har bir so'z, hayotidagi har bir hodisa she'riyat edi. U go'yo, osmonlarda qanot qoqayotgan qush kabi juda yengil va yorqin hayot kechirgan. Muhammad Yusuf kabi o'ta keng qamrovli, hissiyotlari va o'ylari chuqur shoir o'limini bir narsagina — undan qolgan meros va shubhasiz, o'zbek she'riyati rivojiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi she'rlarigina yupatadi.

O'ksimagine o, yurak,
Bo'lma xomush, bo'lma lol:
Mening otam oqterak,
Mening onam-majnuntol.

Shoir she'rini yuragiga murojaat qilish bilan boshlaydi. U qalbiga xafa bo'lmasligini, g'amga botmasligini aytadi. She'rning ikkinchi qatorida yuragiga, hayot qiyinchiliklariga g'amgin va hayron qolmasligini ta'kidlaydi. Ushbu qatorda qo'llangan xomush so'zining ma'nosi -ma'yus va o'ychan. Shoir yuragiga barcha dardlarini xuddi yaqin insoniga aytayotganday so'zlaydi. Yurak uni tinglaydi. Inson hayotida turli xil voqealari sodir bo'ladi. Inson ba'zida hayot mashaqqatlaridan charchaydi, tushkunlikka tushadi, bazan esa hayotning unga atagan ne'matlaridan xursand bo'ladi, maqsadiga erishayotganiga, orzulari amalga oshayotganiga, mehnatlari o'zining natijasini ko'rsatayotganiga Allohga shukrlar aytadi.

She'rning uchinchi qatorida adib otasini oqterak daraxtiga o'xshatadi. Oqterak-bu bog'ning pastki qismida o'sadigan bir chiziq saf tortgan baland, tekis daraxt hisoblanadi.

Ota-har bir oilaning boshi,mustahkam ustunidir.Oilada otaga hurmat tuyg'usi farzandga yoshligidan shakllantiriladi.Bu yerda otaning oqterakka o'xshatilganligi bejizga emas.She'rda otalarimizga xos xarakterlar ,ularning ruhiyati ,farzandiga mehri bir daraxt misolida tasvirlangan.Barchamizga ma'lumki,terak daraxti tekis o'sadi,shoxlari sinib ketmaydi,yaproqlari mayin bo'ladi,o'zining tik qomatini har doim saqlay oladi,egilib ketmaydi,o'ziga xos salobatga ega .Otaning farzandi uchun tinimsiz mehnat qilishi, azob tortishi,qiyinchiliklari- ularning ertangi kuni,yorug' kelajagini ta'minlash va baxtli hayot kechirishlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.Otaning inson hayotida tutgan o'rmini so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi.Sherda dunyodagi barcha otalarga xos xususiyatlar,ularning farzandi uchun hamma narsaga tayyorligi tasvirlab berilgan.Bu jihatdan ota-boshi egilmaydigan,kuchli,mag'rur terak daraxtiga qiyoslanilgan.Ota-ulug'vorlik namunasi.Keyingi misrada dunyodagi eng muqaddas inson- ona tilga olingan.Ona bu yerda majnuntol daraxtiga o'xshatilgan .

Majnuntol-bo'yи 8-10 metrgacha yetadigan ,suv bo'yida egilib o'sadigan,aprel oyida gullaydigan,bir yillik o'simlik.

Ona-hayot davomiyligini ta'minlovchi shaxs.Insonning dunyoda shunday qarzi borki,bu qarzdan u umr bo'yi qutulolmaydi,uni dunyo boyliklari bilan ham to'lab bilmaydi,bu-uning onasi oldidagi qarzidir.Onaning bir kecha bolasiga aytgan allasi,tunlarni uyqusiz o'tkazganini tasavvur qilib ko'ring...Onaning ko'zida farzandiga mehri aks etgan bo'ladi.Ona bolasiga har doim g'amxo'rlik qiladi,umrining oxirigacha farzandini o'laydi,uning baxtli kunlarni ,muvaqqiyatga erishganini ko'rishni istaydi.Dunyoda onadan mehribon inson yo'q.Ona mehri qalblarga quyosh nuridek zarur.Onasiz hayotni tasavvur qilmoq juda ham qiyin.Nega aynan she'rda ona majnuntol daraxtiga qiyoslanilgan?Ona-go'zal,nafis,samimi majnuntol.Sherda o'zbek ayollariga xos jihatlar majnuntol timsoli orqali aks ettirilgan.Majnuntolning egik holda o'sishi,uyatdan yerga qaragan ayolga o'xshatilgan.Ya'ni ayollarga xos uyatchanlik,hayo,g'urur,iffat xususiyatlari majnuntol daraxti misolida tasvirlangan,shoir nihoyatda chiroyli tasvir yarata olgan.Bolaning o'sib,rivojlanib,tarbiya olishi,jamiyatda o'zini qanday tutishi ,oilaviy muhitga,ayolga bog'liq.Oilada tarbiyachi bu-ayol.Ona-farzandiga tarbiya berib,unga to'g'ri yo'ldan yurishni,insonlar bilan muloqot kirishganida ularni hurmat qilishni,hayot sinovlarini yengib o'tishda sabrli bo'lishni o'rgatadi.Har tomonlama barkamol,bilimli,ma'naviyatli avlodni tarbiyalash ko'p jihatdan ayolga bog'liq.O'sib kelayotgan avlodni yerga endi ekilgan navnihol daraxtga o'xshatishimiz mumkin.Uni to'g'ri o'stirish,parvarish qilish majnuntolning,ya'ni onaning qo'lida.Ona majnuntoldek egilib,novdalarini ,ya'ni surriyotini katta hayot ostonasiga tayyorlaydi,farzandi uchun barcha sinovlarga chidaydi,hayotning oq-u qoralarini ularga tanitadi.Inson hamisha ota-onasini qadrlab yashashi kerak.

Osmonda oy yolg'izdir,
Yolg'izman men ham axir,
Mening opam yalpizdir,
Singlim lola -qonbag'ir.

Shoir she'rning 2-bandini ko'm-ko'k osmonda oyning yolg'izligini aytish bilan boshlar ekan, keyingi qatorda o'zining ham yolg'iz qolganini eslatib o'tadi. Ya'ni yolg'izlikda shoir oy bilan suhbatlashmoqchi bo'ladi.

She'rning uchinchi qatorida adib o'z opasini yalpizga o'xshatadi.

Yalpiz-o'tsimon o'simlik,dorivor va foydali xususiyatlarga ega.Shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20-25 turi keng tarqagan.Barglari va poyasidan tibbiyotda,oziq-ovqatda foydalilaniladi,bahorda yangi chiqqan barglaridan Navro'z bayramida ko'k somsa,chuchvara kabi taomlar tayyorlanadi.O'zbekistonning barcha viloyatlarida ariq va daryo bo'ylarida o'sadigan shifobaxsh o'simlik.Mart-oktabr oylarida gullaydi.

Opa-insonning yaqin sirdoshi,suhbatdoshi,suyanchig'i,qiyin vaziyatlarda doimo yonida bo'ladigan,quvonchli kunlarida unga hamroh bo'ladigan,xato qilganida to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan insonidir.Opa insonga onadek mehribon bo'ladi.Jigarlariga samimiylar ular uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qiladigan shaxs.Opa obrazining yalpiz o'simligiga o'xshatilganining asosiy sababi,uning yalpiz tabiatidagi dorivor va foydali jihatlarini o'zida aks ettirganlidigidir.Ya'ni u jigarlari qiyin vaziyatga tushib qolganida,chorasizlikka duch kelganida,hayot mashaqqatlarida toblanayotganida ularga xuddi dori-darmondek yordam beradi,dardlariga malham bo'ladi,davolaydi.U jigarlariga hech qachon yomonlikni tilamaydi,aksincha ularga faqat yaxshilikni istaydi.Ularning yonida bo'ladi,ruhan yuksalishga ,qalban uyg'onishga chorlaydi.Shu jihatdan shoir opasini dorivor o'simlik bo'lgan yalpizga o'xshatadi.Shoir she'rining oxirgi qatorida singlisini bag'riqon lola guliga o'xshatadi.Nega aynan singlisini, lola guliga qiyoslaydi? Buni izohlashdan avval lola haqida ma'lumotga ega bo'laylik.

Lola-ko'p yillik o'simlik,qizil rangda,tog'larda o'sadigan gul.O'rta Osiyoda lolaning 64 turi tarqagan.Bu gul may-iyun oylarida gullaydi.O'zbekistonning tog' va adirlarida lolaning yovvoyi 25 turi o'sadi.Dunyoga mashhur eng nafis madaniy lolalarning (Gollandiya lolalari) ko'pchilik qismi O'rta Osiyo lolalari asosida yaratilgan

Shoir she'rida singlisini lola gulidek bag'ri qonga o'xshatadi.Bag'ri qon so'zi adabiyotda yuragi qon,qalbi yaralangan ma'nolarini bildiradi.Ya'ni lolaning qizil rangdaligi bilan,shoir singlisining yuragi qon ekanligi o'rtasida aloqa bor.Shoir singlisining qalbi ko'p azob chekkanini,qiynalganini,hayot uni o'z sinovlari bilan sinaganini ,chorasiz ahvolga qoldirganini, xuddi yuragining qon bo'lganiga qiyoslaydi.Singlisining nozik qalbli inson ekanligini ko'rsatish uchun u lola gulini tanlagan.O'zbek milliy urf-odatlarida lola qadimdan qadrlanib kelingan .She'rni tahlil qilayotganimizda bir savol paydo bo'ladi.Nega shoir o'simliklar,daraxtlari nomini she'rda keltirib,insonlarni ularga qiyoslagan?Ular o'rtasida aloqa bormi?..

Tarixdan ma'lumki,qadimgi odamlar jamoa tarzida hayot kechirishgan.Odamlar turl xil :hayvonlarga,o'simliklarga e'tiqod qilganlar,ularning ilohiy kuchiga ishonganlar .Totemizm ta'limoti- o'sha davrda insonlar orasida keng tarqalganlaridan biri edi.Bu ta'limot hayvon yoki o'simlik bilan odamlar jamoasining qarindoshligi asosida yuzaga kelgan.Biz yuqorida tahlil

qilgan she'rdagi majnuntol,yalpiz,oqterak,lola kabi daraxt va o'simliklar ham totemizmning yorqin namunasi sifatida qo'llangan.Bu ta'limot bugungi kunda ham saqlanib qolgan .Masalan:bahor fasli kelishi bilan lolalar ochiladi va qirlarda lola sayli,boychechak sayli kabi marosimlar o'tkaziladi.Bu o'simliklarning inson bilan qarindoshlik aloqasi bor degan qarashga misol bo'la oladi.

Shoir she'rida she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalangan.Birinchi bandning ilk misrasida adib nido san'atini qo'llaydi.

Nido-shaxsning his-tuyg'ularini,kechinmalarini ifodalashda belgi,narsa va harakatga murojaat qilish san'ati.Adib bu yerda "O'ksimagine o ,yurak," deb yuragiga murojaat qiladi.Uni yaqin insoni kabi ko'radi,uni jonlantiradi,suhbatdoshiga aylantiradi.Keyingi qatorda tashxis san'ati qo'llangan.

Tashxis-jonlantirish san'ati bo'lib, insonga xos xususiyatlarni narsalarga,o'simliklarga,hayvonlarga ko'chirish.Bu yerda insonga xos xafa bo'lish,hayratga tushish kabi xususiyatlar yurakka ko'chirilyapti.Uchinchi va to'rtinchi misrada ona-majnuntolga,ota-oqterak daraxtiga o'xshatilgan.Baytlarda istiora san'ati qo'llangan.Istiora san'atida so'z o'z ma'nosidan boshqa ma'noda,ko'chma ma'noda ishlataladi.Istiora san'ati jahon adabiyotida metafora deyiladi .Adabiyotda yorni -gulga,qaddi tik daraxtga o'xshatishdan ko'p foydalilanadi.Keyingi bandda ham adib opasini yalpiz o'simligiga ,singlisini lola guliga o'xshatish bilan ,istiora san'atidan mohirona foydalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,shoir she'ri orqali inson ongida totemistik qarashlarning hozirgi kungacha saqlanib kelinayotganini ma'lum qiladi.Sherda badiiy tasvir vositalaridan,nutqni bezovchi shakllardan unumli foydalilanilgan.Shoir she'rida so'z tanlash madaniyatiga alohida ahamiyat bergen,har bir so'zni o'z o'rnida qo'llashga harakat qilgan.Bu o'rinda biz buyuk yozuvchi Qodiriyning:"So'z so'yplashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak " deb aytgan fikrining qanchalik to'g'rilingiga guvoh bo'lamiz.

Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotini o'zining boqiy ,sermazmun merosi bilan boyitgan,rivojlantirgan va sayqal bergen ijodkor sifatida ulug'lanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Oybek.Mukammal asarlar to'plami.20 jildlik.(1975-1985)
- 2.M.Yusuf."Saylanma"."Sharq" Nashriyot-Matbaa-Aksiyadorlik jamiyati,2007 268 bet
- 3.M.Yusuf ."Xalq bo'l, elim" 2017,288 bet.Tuzuvchi:Nazira Salomova .NMUI nashriyoti
- 4.M.Yusuf."Saylanma" 2019."Sharq" nashriyoti,384 bet
- 5.Google.Vikipediya
- 6 Til.gov.uz
- 7.Arbob.uz
- 8.Xabar.uz
- 9.Saviya.uz